



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCE.uz

30 ИЮН
№29

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
9-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
29-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-9**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
29-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-9**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 29-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 32 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ
ТУТГАН ЎРНИ**

1. Mo'minova Maftuna Zoxid qizi O'ZBEKISTON SAVDO-IQTISODIY ALOQALARI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	7
2. Khudoyberdiev Olimjon Furqat ogli, Tursunov Elbek Bahodir ogli THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE ECONOMIC SITUATION OF THE COUNTRY	11
3. Мамадалиев Аббосбек Эркинович ЎЗБЕКИСТОН СОЛИҚ МАЪМУРЧИЛИГИГА TAX FREE ТИЗИМИНИ ЖОРӢ ҚИЛИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	12
4. Мамадалиев Аббосбек Эркинович ДАВЛАТ ПЕНСИЯ ТАъМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ПЕНСИЯ ЖАМҒАРМАСИННИНГ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАъМИНЛАШ ЙӮЛЛАРИ	14
5. Умурқұлов Фарход Мамарасулович ФУҚАРОЛАР ЁШИГА ДОИР ПЕНСИЯ ИШТИРОКЧИЛАРИ ҚАМРОВИНИ КЕНГАЙТИРИШ МОЛИЯВИЙ РИСКЛАРНИ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	18
6. Ахманов Баҳтиёр Ваҳобовиҷ ЎЗБЕКИСТОН БАНКЛАРИНИНГ ЕВРООБЛИГАЦИЯЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	22
7. Ikramova Mehribon Abdushukurovna, Abbos Asadov Hamro o'g'li MAMLAKATDA INVESTITION MUHITNI SHAKLLANTIRISH- INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA (JANUBIY KOREYA MISOLIDA)	25
8. Mamatkulova Nodira Maxkamovna SANOAT KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINING ASOSIY TAMOYILLARI	29
9. Shamsutdinov Xusan Sherbutayevich QURILISH MAHSULOTINI SOTISH SIYOSATI	30
10. Xalilova Aziza Rustamovna QURILISH TASHKILOTLARI MARKETINGINI STRATEGIK VA OPERATIV BOSHQARISH	31



ИКТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

O'ZBEKISTON SAVDO-IQTISODIY ALOQALARI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Mo'minova Maftuna Zoxid qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti stajor-o'qituvchisi
Telefon: +998946883046

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish maqsadida olib borilayotgan chora tadbirlar va savdoiqtisodiy aloqalar rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport, import, elektron savdo, ulgurji savdo, chakana savdo, daromad.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarining faol rivojlanib borishi ko'p hollarda tashqi savdo yuk tashish tizimini rivojlantirish borasida butun Markaziy Osiyo to'qnashadigan mavjud muammolar hal etilishiga bog'liq. Akademik V.Bartold qayd etganidek: "Turkiston kelajagi u jahon savdosida qaysi o'ringa ega bo'lishiga bog'liq. Turkistonning savdoga oid mohiyati quruqlikdagi hamda dengiz savdosi mohiyatini qayta tiklovchi temir yo'llari rivojlanishiga bog'liq".

Tashqi savdo yuklarini tashish uchun muqobil transport yo'laklarini izlash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hukumatining faol chora-tadbirlari hamda mutasaddi vazirlilik va idoralarning muvofiqlashtirilgan ishi natijasida xalqaro transport yo'laklari tarmog'i tashkil etildi va takomillashtirib borilmoqda.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo yuk tashishlari quyidagi asosiy transport yo'laklari orqali amalga oshiriladi[4]:

1-yo'lak — Boltiqbo'yи mamlakatlari portlari yo'nalishida (Qozog'iston va Rossiyadan tranzit orqali) — Klaypeda (Litva), Riga, Liepaya, Ventspils (Latviya), Tallinn (Estoniya);

2-yo'lak — YEI mamlakatlari yo'nalishida, Belarus va Ukraina orqali (Qozog'iston va Rossiyadan tranzit orqali) — Chop (Ukraina) va Brest (Belarus) chegarasi;

3-yo'lak — Ukrainianing Il'ichevsk portiga (Qozog'iston va Rossiyadan tranzit orqali), Qora Dengizga chiqish bilan;

4-yo'lak — TRASEKA yo'lagi sifatida ma'lum bo'lgan Transkavkaz yo'lagi yo'nalishida (Turkmaniston, Qozog'iston va Ozarbayjondan tranzit orqali), Qora Dengizga chiqish bilan;

5-yo'lak — Eronning Bandar Abbas portiga (Turkmanistondan tranzit orqali), Fors ko'rfaziga chiqish bilan;

6-yo'lak — Qozog'iston — Xitoy chegarasi orqali sharqiy yo'nalishda (Dostiq/Alalshan'kou) Xitoyning sharqiy portlarigacha, shuningdek Uzoq Sharqning Naxodka, Vladivostok va boshqa portlarigacha;

7-yo'lak — Xitoy portlariga (Qirg'izistondan tranzit orqali) Sariq, Sharqiy-Xitoy va Janubiy-Xitoy dengizlariga chiqish bilan;

8-yo'lak — afg'on muammosining tartibga solinishi munosabati bilan Afg'onistondan tranzit orqali Eron va Pokistonning Bandar Abbas, Chaxbaxar (IRI), Gvadar va Karachi (IRP) portlariga janubiy muqobil transport yo'laklarini ishlab chiqish bo'yicha yangi istiqbollar ochib berilmoqda.

Yuqorida keltirilgan transport yo'laklarining to'laqonli faoliyat olib borishi O'zbekistonning uzoq xorij mamlakatlari bilan tayyor mahsulotlarni yetkazib berishdagi muammolarining yechilishida muhim hisoblanadi.

Eng yirik xalqaro bozorlarni bog'laydigan Markaziy Osiyoning muhim geostrategik mavqeini



hisobga olgan holda, mintaqamizning xalqaro transport yo'laklari tizimiga integratsiyasini tezlashtirish uchun mamlakatlarimizning sa'y-harakatlarini birlashtirish muhim ahamiyatga ega.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Harakatlar strategiyasining[1] Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish ustuvor yo'nalishi hamda respublikamizdagi barcha ishlab chiqarish korxonalari uchun teng raqobat muhitini ta'minlash maqsadida mahalliy lashtirish dasturiga kiritilgan loyihalarga qo'llaniladigan bojxona hamda soliq imtiyozlari 2018-yilning aprel oyidan bekor qilindi.

Bundan tashqari, mahalliy iste'molchilarga tanlov imkoniyatini berish, halol raqobat, bozordagi adolatli narx va yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishish maqsadida aksariyat import mahsulotlari bo'yicha bojxona tariflari isloh qilindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatda mahalliy xomashyolar asosida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda yirik sanoat korxonalari bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari o'rtaida sanoat kooperatsiyasi aloqalarini yanada kengaytirishni ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi[5]:

1) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyyati organlari rahbarlari faoliyatida ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini kengaytirishni jadallashtirish eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilandi;

2) Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish jarayonlarini chuqurlashtirish bo'yicha vakolatli organ sifatida belgilandi;

3) Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmalarida hokimning ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha yordamchisi lavozimi joriy etildi;

4) Tarmoq xo'jalik birlashmalari va yirik ishlab chiqarish korxonalarida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarida korxona rahbarining mahalliy lashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot-texnologiyalari masalalari bo'yicha birinchi o'rnbosari lavozimi joriy etildi;

5) 2020-2021 yillarda ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishga qaratilgan manzilli dastur ishlab chiqilib, 2020-yilda 1396 ta loyiha doirasida 26,4 trln. so'mlik (shundan hududlarda 674 ta, 4,1 trln. so'mlik), 2021-yilda 1644 ta loyiha doirasida 37,6trln. so'mlik (shundan, hududlarda 787 ta loyiha, 6,1 trln. so'mlik) mahalliy lashtirilgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi va bunda o'rtacha mahalliy lashtirish darajasi 60-85 foizni tashkil etadi.

Agar biz eksportni rivojlantirmoqchi bo'lsak, bozorning zamonaviy infrastrukturasi ni shakllantirishimiz kerak. Juhon bozoriga O'zbekiston mahsulotlarini sotmoqchi ekanmiz, mamlakatda onlayn qidiruv bozorlar bazasini shakllantirishimiz kerak bo'ladi. Bugun bizda barcha sohadagi ishlab chiqaruvchi va eksportyarlarni o'zaro birlashtiradigan, konstruktiv tarzda yondashib ishlab chiqilgan loyihaga ehtiyoj bor. Masalan, tadbirkor arzon va kerakli mahsulotni topishi uchun hozirda ijtimoiy tarmoqlarning turli telegram kanallari, saytlaridan foydalanishga majbur bo'ladi. Ularni har birini ochib qidirish ham gohida qiyinchilik tug'diradi. (Ustiga-ustak bularni orasida rasmiy maqomga ega bo'limganlar ham uchrab turadi).

O'zbekistonda rasmiy eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar borki, ular tadbirkor va dehqonlarning eksport faoliyatiga ko'mak berib kelmoqda. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Uzagroeksport. Ushbu tashkilot meva, sabzavot, quruq va rezavorlarni eksport qilish bilan shug'ullanadi. Ushbu tashkilotning Rossiya va Qozog'istonda 9 ta savdo uyi mavjud. Kelgusida ushbu tashkilot OTO mamlakatlarida ham o'z savdo uylarini ochsa, meva va sabzavotlar eksportini oshirishda muhim omillardan biri bo'lar edi;

2. Uztreyd. Ushbu tashkilot to'qimachilik, don mahsulotlari, qishloq xo'jaligi, metallurgiya mahsulotlari eksporti bilan shug'ullanadi.

3. "O'zAgroEksportBank". Bankning asosiy maqsad va vazifasi quyidagilardan iborat:


Bank mijozlariga agrosanoat, avvalom bor meva-sabzavot mahsulotlarini xalqaro bozorlarda ilgari surish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishlarida yordam berish.

Chet el investorlari, xalqaro moliya institutlari, chet el banklarining resurslarini agrosanoat sohasi tashkilotlarini moliyalashtirish va chet ellik hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni rivojlantirishga jalb qilish.

Ushbu bank faoliyatining kelgusi davrda rivojlanishi, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqar-


ishda va sotishda moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolarning tezkor yechilishida katta ahmiyat kasb etishi mumkin.

Mamlakatda elektron savdoni ham rivojlantirish kelgusida mahsulotlarning ulgurji va chakana eksportini rivojlantirish imkonini beradi.



1-rasm. Jahon onlayn-do'konlari savdosi (trln.AQSh doll.)[6]

Masalan, 2017-yilda dunyodagi internet do'konlarning savdo hajmi 2, 36 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan (1-rasm). Shulardan eng yaxshi o'sish sur'ati Osiyo Tinch okeanida kuzatilgan. Savdo aylanmasi 1052,9 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan (2-rasm).



2-rasm. Dunyo mintaqalarida Internet-tijorat aylanmasi dinamikasi (mlrd,doll)[6]

Misol uchun Yaponiyani oladigan bolsak, “Amazon Japan”, “Rakuten”, “Yahoo Japan Shopping”, Xitoyda “Alibaba”, “Aliexpress”, singari bir nechta onlayn bozorlar bazasi mavjud bo‘lib, ancha qulay hisoblanadi.

Amazon Japan, Rakuten va Yahoo Japan Shopping eng mashhur elektron tijorat bozorlari bo‘lib, ular Yaponiyadagi elektron tijorat savdosining deyarli 50 foizini tashkil qiladi. Tarixan Rakuten aniq etakchi bo‘lgan, ammo so‘nggi yillarda Amazon Japan o‘zining tarqatish markazlari tarmog‘iga sarmoya kiritib, bozorda o‘z mavqeini oshirdi.

Rakuten Ichiba 227 milliondan ortiq mahsulotni o‘z ichiga olgan Yaponiyadagi eng ommabop elektron tijorat platformasi hisoblanadi. Deyarli barcha mahsulotlar platformada mavjud. Rakuten platformasida xaridolarning ko‘proq mahsulot sotib olishlarini rag‘batlantirish uchun ko‘plab mahsulotlar rasmlari, juda chegirmali reklama dasturlari mavjud. Elektron tijorat ularning hammasi emas. 70 dan ortiq ishbilarmonlik korxonalarini bilan ular raqamli tarkib, aloqa, FinTech va boshqa ko‘p narsalarda ulushga ega. Ular Yaponiyaning eng yirik onlayn-bankiga, shuningdek mamlakatdagi birinchi raqamli kredit kartalari kompaniyalariga egalik qilishadi. Ular, shubhasiz, 29 mamlakatlarida ishlaydigan va 7.5 milliard evrodan 2017 milliard evrogacha bo‘lgan global



miqyosda hisobga olinadigan kuchdir.

Alibaba e-bozor bo‘lib, Alibaba group kompaniyasiga tegishli. Alibaba group kompaniyasiga, 1999 — yilda, Jek Ma asos solgan. “Alibaba” — b2b (biznes uchun biznes)tizimida ishlaydi. Ya’ni zavod yoki fabrika katta miqdorda (xalq tilida “optom”), to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotuvchiga sotadi. “Alibaba”da narxlar ancha arzon lekin donabay sotilmaydi. O‘rtacha buyurtma beriladigan miqdor 100 dona, ammo tovar turiga qarab farq qiladi. Barcha tovarlarda, eng kami nechta sotilishi, tahminiy narxi va tovar haqida ma’lumotlar yozilgan. Narxi tahminiyligining sababi, nechta buyurtma berilishiga qarab, sotuvchining o‘zi bilan suhbatlashgandan keyin qimmatroq yoki arzonroq bo‘ladi[7].

2020-yilning birinchi choragida Alibaba daromadi 42% ga oshdi. Aprel-iyun oylarida Alibaba daromadi 14,7 milliard yevroga yetdi. 2019-yil kompaniya daromadi 10,4 milliard yevro edi. Kompaniya o‘zining faol iste’mol tarmog‘i hozirda 674 million foydalanuvchini tashkil etganini e’lon qildi, bu 2019-yilga nisbatan 17% ga oshganini ko‘rsatadi[8].

Bugungi kunda O‘zbekistonda Asaxiy, OLX, Alibazar singari e-bozorlar faoliyat yuritsada, ular asosan ichki bozor iste’molini qondirish bilan shug‘ullanadi.

Ammo kelgusida O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ulgurji tarzida Alibaba e-bozoriga hamda chakana tarzda Rakuten Ichiba internet do‘konlarida joylashtirilsa, ular orqali eksportni rivojlantirish imkonи ham yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasiniyanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. [elektron resurs]. - Manba: <https://lex.uz>.
2. Ш. М. Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016.
3. Алимов А., Хамедов И. Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолият асослари. Дарслик. -Тошкент: ЎзАЖБНТ, 2004.
4. <https://mift.uz/ru/menu/transportnye-koridory>
5. <http://mineconomy.uz/uz/news/view/3014>
6. <https://www.shopolog.ru/metodichka/analytics/statistika-internet-torgovli-v-stranakh-mira/>
7. [https://lifetime.uz/aliexpress-va-alibaba-haqida-batafsil-buyurtma-pul-ishlash-va-bepul-tovarlar /](https://lifetime.uz/aliexpress-va-alibaba-haqida-batafsil-buyurtma-pul-ishlash-va-bepul-tovarlar/)
8. <https://aniq.uz/yangiliklar/alibaba-kompaniyasi-daromadi-keskin-kutarildi>



THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE ECONOMIC SITUATION OF THE COUNTRY

Khudoyberdiev Olimjon Furqat oglı¹,

Telephone: +998907312525

Tursunov Elbek Bahodir oglı²,

Telephone: +998995760742

Students of Navoi state mining institute^{1,2}.

Annotation: This article analyzes the state of economic relations of small business and private entrepreneurship in our country.

Keywords: small business, entrepreneurship, branches of entrepreneurship, gross domestic product (GDP).

Economic reforms in our country are a priority of economic liberalization and development. In particular, special attention is paid to deepening structural reforms, increasing its competitiveness through modernization and diversification of key sectors of the national economy. To this end, it is expedient to work in the field of comprehensive diversification in our country. The most suitable areas in this direction are small business and private entrepreneurship.

Small business and private entrepreneurship play a significant role in the country's GDP. In particular, at the end of 2020, the share of small businesses in GDP was 53.9%. The number of these subjects is 15.6 units per 1,000 population. During the same period, 93.2 thousand new small enterprises and micro-firms were created in the country, which is 0.4% more than in the previous period. At the same time, trade, industry and agriculture play a leading role in the share of newly established enterprises.

The process is as follows for small businesses and micro-firms operating in the areas of economic activity:

- Trade - 32.0%;
- Industry - 20.1%;
- Agriculture, forestry and fisheries - 9.9%;
- Construction - 9.9%;
- Accommodation and meals - 7.3%;
- Transportation and storage - 4.2%;
- Information and communication - 2.2%;
- Health and social services - 1.8%;
- Other activities - 12.6%.

Currently, the number of small enterprises and micro-firms operating in the country is 411,203, of which 93,214 were established in 2020.

Balanced development of the economy of our country, its effective structure and thus achieving sustainable economic growth are important conditions for the development of our country and the well-being of the people. To achieve this goal, first of all, it is necessary to accelerate the development of the real sector of the economy. Accordingly, in a market economy, the support of private enterprises of the economy is of great importance, and in our country this process has been carried out in a number of key areas. In particular, in support of small businesses, special attention was paid to the modernization of production, the expansion of cooperation and integration, the establishment of strong cooperation and the stimulation of domestic demand for domestically produced products.

References:

1. www.stat.uz
2. www.mineconomy.uz
3. www.lex.uz



ЎЗБЕКИСТОН СОЛИҚ МАЪМУРЧИЛИГИГА TAX FREE ТИЗИМИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.

Мамадалиев Аббосбек Эркинович,
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия
академияси тингловчиси
Телефон: +998(91) 129 88 00
abbos0888@mail.ru

Аннотация: Бугунги кунда дунё бўйлаб 130 дан ортиқ мамлакатда қўшилган қиймат солиғи амалиёти мавжуд бўлиб шулардан 50 тасида чет эл фуқароларига қўшилган қиймат солигини қайтариб бериш тизими яъни Tax free тизимидан фойдаланиб келинмоқда. Мазкур мақолада Tax free тизимидан фойдаланиб келаётган айрим хорижий мамлакатларни тажрибаси ўрганиб чиқилган.

Калит сўзлар: қўшилган қиймат солиғи, tax free тизими, tax free тизимини хориж тажрибаси, энг кам харид миқдори, солиқ ставкаси.

Чет эллик меҳмонларни қабул қилувчи мамлакатда қўшилган қиймат солигини тўлашдан озод қилиш, кўпинча харидларнинг кўпайишига ёрдам беради, шунингдек, ички бозорни ҳаддан ташқари тўйинтириш хавфи бўлмаган ҳолда ишлаб чиқаришни ривожлантириш даражасини оширади.

Биринчи марта tax free тизими 1980 йилда Швециянинг Треллеборг шахридан Германияга кетаётган паромда фойдаланила бошланди, бу тажриба самарали натижалар берди ва бошқа давлатлар уни янада ривожланган ва такомиллаштирилган шаклларда жорий қила бошладилар¹.

Маълумки бугунги кунда хориж тажрибасини ўрганиб шуни айтиш мумкинки дунё бўйлаб 130 дан ортиқ мамлакатда қўшилган қиймат солиғи амалиёти мавжуд бўлиб шулардан 50 тасида чет эл фуқароларига қўшилган қиймат солигини қайtариб бериш тизими яъни Tax free тизимидан фойдаланиб келинмоқда².

Tax free – чет эл фуқароларига сотиб олинган товарларини мамлакатдан олиб чиқиб кетаётганда ушбу товарларга қўлланилган қўшилган қиймат солигини қайtариб бериш тизимиdir³.

Қўйида Tax Free тизимини қўллайдиган хориж мамлакатларини тажрибасини кўриб чиқамиз.

Японияда қўшилган қиймат солигини стандарт ставкаси 8%. Энг кам харид миқдори умумий товар истеъмолчиларига 5400 иен тахминан 42 евро атрофига. Японияда 6 ойдан кам муддат давомида яшаб турган хориж фуқаролари ҳамда чет элда икки йилдан ортиқ муддат давомида яшаган Япония фуқаролари олти ойдан кўп бўлмаган муддатга Японияга келишганда Tax Free харидида иштирок этиш хуқуқига эга ҳисобланади. Бироқ агент ёки ишончли шахс томонидан солиқ қайtариб олиш мумкин эмас.

Японияда Tax Free тизимни ишлаш тартиби: Tax Free маҳсус дўконидан товарларни харид килгандан кейин талаб этилган хужжатларни дўконни ўзида расмийлаштириб олиш керак. Талаб этилган хужжатларни харид вақтида тақдим қилиш талаб этилади. Соликларни қайtариб олиш баъзи дўконларда нақд пул орқали баъзиларида эса кредит карта орқали амалга оширилади.

Соликларни қайtариб беришда харид қилинадиган товарлар: умумий фойдаланишдаги товарлар, масалан соат, сумка, уй рўзгор буюмлари каби умумий қиймати 5400 иен (таксинан 42 евро атрофига)дан кам бўлмаган. Истеъмол товарлари, масалан касметика, озиқовқат маҳсулотлари, аллагол маҳсулотлари умумий қиймати 5400 иен (таксинан 42 евро атрофига)дан 54000 иен (таксинан 420 евро атрофига)гача бўлган товарлар. Фақат шахсий истеъмол учун бўлган тақдирда (тижорат мақсадида эмас). Товарларни харид қилгандан кей-

¹ Краскина Е.Ю 2019 - Сравнительная характеристика системы tax free в Российской Федерации и в зарубежных странах.

²НО.П.Дорошина 2018 - Положительные эффекты введения системы Tax-free.

³ Крюченко Н.Н 2019 Tax-free, особенности обложения ндс



ин 30 кун муддат ичидаги мамлакатдан олиб чиқбетилган тақдирдагина солиқни қайтариб олиш мумкин бўлади акс ҳолда солиқ қайтариб берилмайди.

Марокко қадимий маданиятга эга мамлакат ҳисобланаб, ҳар бир сайёх ўзида ёрқин хотиралар билан қайтади. Кўшилган қиймат солигини стандарт ставкаси 20% бўлиб энг кам харид миқдори 2000 марокко дирхами (236 доллар атрофида) ҳисобланади. Мароккодан ташқарида яшовчи барча фуқаролар ушбу тизимдан фойдаланиш ҳуқуқига эга ҳисобланади.

Мароккода Tax Free тизимни ишлаш тартиби: Харидни амалга ошириб бўлгандан кейин солиқ қайтариб олиш учун маҳсус шаклни тўлдириб беришини сўраш керак. Денгиз портларида ва аэропортларда ходимлар томонидан маҳсус бланкалар тўлдирилади ва муҳр босилади. Tax Free пунктларига хужжатлар тақдим қилинади ҳамда нақд пулда ёки банк карта орқали солиқ қайтариб олинади. Озиқ овқат маҳсулотлари, тиббиёт препаратлари, қимматбаҳо тошлар ва маҳсус маданий объект товарларидан ташқари барча умумий ва истеъмол товарларига ушбу тизим тадбиқ қилинади.

Буюк Британия қўшилган қиймат солигини стандарт ставкаси 20% лекин болалар учун автомобил ўриндигига алоҳида 5% бўлиб энг кам харид миқдори 30 фунт ҳисобланади. Европа иттифоқига аъзо бўлмаган мамлакат фуқаролари ҳамда Европа иттифоқига аъзо бўлган мамлакат фуқаролари ўз мамлакатида 12 ойдан ортиқ вақт давомида четда бўлган тақдирда ушбу тизимдан фойдаланиш ҳуқуқига эга ҳисобланади.

Буюк Британияда Tax Free тизимни ишлаш тартиби: Товарларни харид қилгандан кейин 3 ой ичидаги мамлакатдан олиб чиқбетилган тақдим этилади. Божхонада товар чеклари тақдим этилади. Китоблар, газеталар, болалар киймлари, интернет тармоғи орқали харид қилинган товарлар, янги автомобиллар ва экспорт қилишга маҳсус рухсатнома талаб қиласиган товарларга нисбатан бу тизим тадбиқ қилинмайди.

Австралияда қўшилган қиймат солигини стандарт ставкаси 10% бўлиб энг кам харид миқдори 300 австралия доллари ҳисобланади. Мамлакат норезидентлари ҳамда ишлаш ва яшаш учун келмаган фуқаролар ушбу тизимдан фойдаланиш ҳуқуқига эга ҳисобланади.

Австралияда Tax Free тизимни ишлаш тартиби: Савдо дўконидан Tax Free амал қиласиган товарларни харид қилганда маҳсус шаклни тўлдириш керак бўлади. Товарларни харид қилгандан кейин 30 кун муддат ичидаги мамлакатдан олиб чиқбетилган тақдирдагина солиқни қайтариб олиш мумкин бўлади акс ҳолда солиқ қайтариб берилмайди. Алкагол, тамаки ва бошқа тақиқланган товарлардан бошқа барча товарларга ушбу тизим тадбиқ қилинади. Товарлар мамлакатни ўзида ишлатилмаган бўлиши, асл ишлаб чиқарилган ҳолида турган бўлиши керак бўлади.

Россия федерацияси қўшилган қиймат солигини стандарт ставкаси 20% бўлиб энг кам харид миқдори 10000 рубль ҳисобланади. Евроосиё иқтисодий ҳамкорлик ташкилоти (Арманистон, Беларусия, Қирғизистон, Қозогистон ва Россия) га аъзо бўлмаган мамлакат фуқаролари Россия савдо вазири тасдиқлаган рўйхатдаги товарларга нисбатан ушбу тизимдан фойдаланиш ҳуқуқига эга ҳисобланади. Россияда Tax Free тизимни ишлаш тартиби: Маҳсус дўкондан Tax Free чекини тўлдириб олинади, божхона назоратида белги қўйдирилади ва тасдиқлатилади, Tax Free пунктига мурожаат қилинади ва карта орқали ёки нақд кўринишида солиқ қайтариб берилади. Товарларни харид қилгандан кейин 30 кун муддат ичидаги мамлакатдан олиб чиқбетилганда шунингдек товарлар мамлакатни ўзида ишлатилмаган бўлиши, асл ишлаб чиқарилган ҳолида турган бўлса солиқни қайтариб олиш мумкин бўлади акс ҳолда солиқ қайтариб берилмайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Краскина Е.Ю 2019 - Сравнительная характеристика системы tax free в Российской Федерации и в зарубежных странах.
2. О.П.Дорошина 2018 - Положительные эффекты введения системы Tax-free.
3. Крюченко Н.Н 2019 Tax-free, особенности обложения ндс.
4. П.Э.Голубева 2018 - Особенности системы Tax-free В Россис и зарубежом.



ДАВЛАТ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ПЕНСИЯ ЖАМҒАРМАСИННИГ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Умурқулов Фарход Мамарасолович
Ўзбекистон Республикаси
Банк-молия академияси
Тел: 993888855

Мақолада бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси даромадларининг шакллантирилиши, молиявий ҳолати ва унинг таҳлили ҳамда суғурта бадалларидан тушумлар ва Пенсия жамғармасидаромадларининг корреляцион таҳлили амалга оширилган. Шунингдек, Пенсия жамғармасининг молиявий ҳолатига таъсир қилувчи омиллар таҳлил қилинган, жамғарма молиявий барқарорлигини таъминлаш борасида илмий таклиф ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Таянч сўз ва иборалар: пенсия, пенсия таъминоти тизими, Пенсия жамғармаси, ягона ижтимоий тўлов, ижтимоий суғурта, молиявий барқарорлик, корреляция коэффициенти

ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПЕНСИОННОГО ФОНДА ПРИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕНСИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

В данной статье рассмотрены вопросы формирования доходов и анализа финансового состояния внебюджетного пенсионного фонда и проведен корреляционный анализ поступлений страховых премий и доходов пенсионного фонда. А также проанализированы факторы, влияющие на финансовое состояние пенсионного фонда и выработаны предложения и практические рекомендации по обеспечению финансовой устойчивости фонда.

Ключевые слова: пенсия, пенсионная система, Пенсионный фонд, единый социальный платеж, социальное страхование, финансовая стабильность, коэффициент корреляции

WAYS TO ENSURE THE FINANCIAL STABILITY OF THE PENSION FUND WHEN IMPROVING THE STATE PENSION PROVISION

This article discusses the issues of revenue generation and analysis of the financial condition of an extrabudgetary pension fund and carries out a correlation analysis of insurance premium income and pension fund income. It also analyzes the factors affecting the financial condition of the pension fund and develops proposals and practical recommendations for ensuring the financial stability of the fund.

Keywords: pension, pension system, Pension Fund, single social payment, social insurance, financial stability, correlation coefficient

Кириш

Мамлакат тараққиётифуқаролар турмуш кечириш даражасининг яхшиланишида намоён бўлади. Шунингдек, аҳолининг кексайганда ёки меҳнат лаёқатини йўқотганида турмуш даражасини яхшилашга ва уларни камбағалликдан химоялашда пенсия таъминоти тизими энг муҳим ижтимоий химоя институтларидан бири сифатида хизмат қиласи. Хусусан, мамлакатда икки даражадаги пенсия тизими, яъни давлат пенсия таъминоти ва жамғарив бориладиган пенсия таъминоти тизимлари амал қилиб турган бир даврда давлат пенсия таъминоти тизимининг самарали фаолият кўрсатиши ва унинг молиявий барқарорлиги уша мамлакатнинг ижтимоий фаровонлиги даражасини оширишга бевосита таъсир кўрсагади. Шунинг учун ҳам давлат пенсия таъминотини такомиллаштиришда бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг молиявий барқарорлигини таъминлаш муҳим аҳамият касб этади. Пенсия таъминотида давлат пенсияси муҳим аҳамиятга эга бўлмаган давлатлар ҳам мавжуд бўлиб, “Германияда пенсия тизими учта устунга асосланади: давлат пенсиялари, иш берувчиликлар (касбий, корпоратив) пенсиялари ва шахсий (нодавлат) пенсиялар”[1]. Бунда албатта



асосий пенсия иш берувчи ва нодавлат пенсиялар ҳисобланади.

Пенсия таъминоти тизимини ислоҳ қилиш ва уни такомиллаштириш 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида[2] асосий устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланганлиги, шунингдек, аҳолини ижтимоий қўллаб-кувватлаш борасида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасидатъкидлаган кўйидаги сўзларини келтириш ўринлидир:“Охирги уч йилда “Инсон манфаатлари ҳамма нарсадан устун” деган тамойил асосида, ҳалқимиз ҳаётини тубдан яхшилаш бўйича олиб бораётган кенг кўламли ижтимоий ислоҳотларни давом эттирамиз. Бунинг учун биринчи навбатда аҳоли фаровонлигини ошириш ва унинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш – биз учун бош вазифалардан бири бўлиб қолади”[3].

Мавзуга оид адабиётлар шархи

Халқаро иқтисодчи олимлар Д.Амаглобели, X.Чаи, Э.Дабла-Норрислар пенсия таъминотини молиялаштиришда миллий жамғармаларга эътибор қаратиш кераклигини таъкидлашади, шунингдек демографик ўзгаришлар кескин тус олаётган бир пайтда индивидуал капиталлашувни ошириш пенсия таъминоти барқарорлигини кафолатлашини тадқиқ этишмоқда[4].

Россиялик иқтисодчи олим В.Роик Пенсия жамғармаси молиявий барқарорлигини оширишда ижтимоий суғуртанинг роли, унинг аҳамияти бўйича ўзининг илмий тадқиқотларини олиб борган [5].

Ўзбекистонлик олимлардан Д.Рустамов[6] ва Ш.Давроновларнинг[7] илмий ишларида Ўзбекистонда бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг молиявий барқарорлигини таъминлашнинг илмий-назарий асослари, Пенсия жамғармаси даромадлари ва ҳаражатлари ҳамда Пенсия жамғармаси молиявий барқарорлигини таъминлаш истиқболлари тадқиқ этилган бўлиб, улар юзасидан муҳим илмий хуросалар шакллантирилган ва таклиф-тавсиялар ишлаб чиқилган.

Таҳлил ва натижалар

Бугунги кунда давлатнинг ижтимоий-иқтисодий сиёсатининг энг муҳим йўналишларидан бири бу пенсия таъминоти тизимини ислоҳ қилиш ва унинг молиявий барқарорлигини таъминлаш ҳисобланади. Бугунги кунда Пенсия жамғармаси томонидан пенсия ва ижтимоий нафақаларни ўз вақтида тайинлаш, тўлиқ миқдорда молиялаштириш, тўловлар устидан мониторинг юритиш, пенсия таъминотига йўналтириладиган маблағларнинг мақсадлилиги юзасидан назоратни кучайтириш борасида бир қатор вазифалар белгилаб берилган.

Ўзбекистонда пенсия таъминотини амалга оширувчи асосий молиявий муассаса бўлган Пенсия жамғармасининг молиявий барқарорлигига Пенсия жамғармасига жамланадиган маблағларнинг ҳажми ва уларнинг ўз вақтида ундирилиши ҳамда Пенсия жамғармасидан тўланадиган пенсиялар, ижтимоий нафақалар, компенсация тўловлари ва бошқат тўловларнинг молиялаштирилиши таъсир кўрсатади. Давлат пенсия фондлари барқарорлигини таъминлаш макроиқтисодий нуқтаи назардан ҳам катта аҳамиятга эга бўлиб, бу борада АҚШлик олим Jung Peng томонидан айтилган фикрлар аҳамиятлидир: “...пенсия таъминоти бошқаруви, нафақат, пенсия таъминотининг молиявий барқарорлигига, балки бутун давлат секторининг молиявий барқарорлигига таъсир кўрсатади, шу сабабли пенсия таъминоти бошқаруви давлат пенсия тизимига пенсия бадалини тўловчи ва келгусида ундан ҳукумат томонидан кафолатланган пенсия тўловларини олувчи ҳар бир шахсга дахлдор бўлмоғи лозим” [8].

Қайд этиш жоизки, Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодексида “Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти, ижтимоий нафақалар тўлаш, компенсация тўловлари ва бошқа тўловлар бўйича ҳаражатларни молиялаштиришга йўналтириладиган мажбурий тўловлар, бадаллар, шунингдек, бошқа манбалардан тушадиган маблағларни жамлаш белгиланган”[11]. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексига асосан Пенсия жамғармасига ундириладиган маблағлар солиқларга тенглаштирилган бўлиб, юридик ва жисмоний шахслардан мажбурий равишда ундирилади ва маблағларнинг ўз вақтида тўлиқ ундирилиши Давлат солиқ қўмитаси зиммасига юклатилган.

Сўнгги йилларда давлат пенсия таъминоти тизимини такомиллаштириш юзасидан кенг кўламли ҳуқуқий ислоҳотлар амалга оширилди. Жумладан, иш ҳақи, пенсия, нафақа ва стипендияларни тўлаш тизимини тубдан такомиллаштириш, пенсионерлар, талабалар



ва ахолининг бошқа ижтимоий эҳтиёжманд қатламлари ҳукуқ ва қонуний манфаатлари ҳимоясини сўзсиз таъминлаш, уларнинг Ўзбекистон Республикасининг барча ҳудудида харид қиладиган товар ва хизматлар учун тўловларни тўсиқларсиз амалга ошириши учун қулай шароитлар яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори қабул қилинди. Мазкур қарор мамлакатимиз ҳудудларида иш ҳақи, пенсия, нафака ва стипендиялар тўлашдаги мавжуд ахволни танқидий таҳлил қилиш натижасида қабул қилинган бўлиб, 2017 йил феврал ойидан бошлаб[12]:

– барча турдаги пенсияларни тўлаш ҳеч қандай чекловларсиз тўлиқ ҳажмда нақд шаклда амалга оширилиши;

– 58 тоғли ва олис туманларда жойлашган бюджет ташкилотлари ходимларига иш ҳақи тўлаш, шунингдек, ушбу туманлар ахолисига ижтимоий тўловлар ҳам ҳеч қандай чекловларсиз тўлиқ ҳажмда нақд шаклда амалга оширилиши;

“Пенсия таъминоти тизимини ислоҳ этишнинг муҳим сабаби давлатнинг пенсияга оид мажбуриятларини бажариш учун молиявий ресурсларнинг этишмаслигидир. Ушбу муаммо ахолининг кексайиб боришига мувофиқ кучайиб, мураккаблашиб боради ва мамлакатларда вужудга келган иқтисодий, ижтимоий ва демографик вазиятлардан келиб чиқкан ҳолда алоҳида аҳамият касб этади”[13].

1-жадвал

Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси маблағлари ва унинг ялпи ички маҳсулотга нисбати[14]

Кўрсаткичлар	2012 йил	2013 йил	2014 йил	2015 йил	2017 йил	2018 йил	2019 йил
Ялпи ички маҳсулот (номинал) млрд. сўмда	97929,3	118987	144868	171369	249130	407514,5	424100
Пенсия жамғармаси маблағлари млрд. сўмда	8065,4	10302,1	13013,7	16557	19505,1	23240,1	23656,6
Пенсия жамғармаси маблағларининг ялпи ички маҳсулотдаги улуси, %да	8,2	8,7	9,0	9,7	7,8	5,7	5,6

1- жадвал маълумотларида ялпи ички маҳсулот (ЯИМ)нинг 2018 йилда 2012 йилга нисбатан 4 баробар ошганлигини кўришимиз мумкин. Аммо Пенсия жамғармаси маблағларининг ЯИМдаги улушкини охирги йилларда пасайиш тенденциясига эга бўлмоқда. 2019 йил прогнозларига кўра эса 5,6 фоизни ташкил қилмоқда.

2019 йилда пенсия таъминоти тизимида амалга оширилган ўзгаришлар Пенсия жамғармаси даромадлари таркибида ўзгаришлар бўлишига сабаб бўлди. Мазкур ўзгаришлар қўйидагилардир:

- ўтган 2018 йил ҳолатига кўра аксарият ишловчилардан ташқари қолган барча ишловчи пенсионерларга пенсиянинг 50 фоиз миқдори тўланади (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20.11.1995 йилдаги ПФ-1289-сон Фармони). Тўлиқ пенсия олиш ҳуқуқига эга бўлган ишловчи пенсионерлар тоифаси (ногиронлар, уруш қатнашчилари ва маълум бир лавозимлар) 2018 йил 1 май ҳолатига кўра 31 тани ташкил қилмоқда. Бироқ шу пайтгача 100 фоиз пенсия оладиган ишловчи пенсионерларнинг барча тоифалари битта тўлиқ рўйхат ҳолига келтирилмаган, улар турли норматив ҳужжатларда алоҳида кўрсатилган. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг ПФ-5597-сонФармонига кўра 2019 йил 1 январдан бошлаб барча ишловчи пенсионерларга пенсиялар тўлиқ миқдорда тўланиш бошланди[15];

Хулоса ва таклифлар

Хулоса қиладиган бўлсак, бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси давлат пенсия таъминотини молиялаштириш билан шуғулланадиган ягона марказлашган жамғарма эканлигини ҳисобга олиб, жаҳонда, шу жумладан мамлакатимизда иқтисодий, ижтимоий ва де-



мографик ўзгаришлар натижасида салбий таъсирлардан жамғармани ҳимоя қилиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан хисобланади ва бу эса доимий равишда илмий ва амалий изланишлар олиб боришилигини тақозо этади.

Ўзбекистонда давлат пенсия таъминоти тизимини молиялаштиришнинг молиявий манбаларини такомиллаштиришда қуидагиларни таклиф этиш мумкин:

1. Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси молиявий манбаларини такомиллаштиришда амалга оширилган корреляция боғлиқлиги натижаси бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси даромадлари барқарорлигини таъминлашда сұғурта бадали түловлари бўйича тушумлар миқдорини кўпайтириш энг муҳим омил эканлигини ҳисобга олиб, 2019 йилдан ундирилиши бекор бўлган ишловчиларнинг иш ҳақиларидан мажбурий тартибда ундириладиган сұғурта бадалини қайта босқичма-босқич жорий қилиш мақсадга мувофиқ ва бу албатта жамғарма даромадларига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади.

2. Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг йил бошига ва йил охирига ижобий салдога эга эканлигини, бўш турган пул маблағларини фақат тижорат банкларига фоиз ҳисобига депозитларга жойлаштирилаётганлигини ҳисобга олиб, жамғарма маблағларини инвестицион фаолиятга кенгроқ жалб қилиш керак.

3. Бўлажак пенсионерларнинг пенсия ёшига етганида етарли даражада пенсия билан таъминлаш мақсадида Ўзбекистонда давлат кафолати остида нодавлат пенсия фондларини ташкил қилиш мақсадга муфовиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Eibich P., Siedler T. Retirement, intergenerational time transfers, and fertility. European Economic Review. Volume 124, May 2020,P 3. www.scopus.com
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ПФ-4947-сонли Фармони. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси. 2020 йил 25 январь, № 19 (7521)
4. David Amaglobeli, Hua Chai, Era Dabla-Norris, Kamil Dybczak, Mauricio Soto, and Alexander F. Tieman. The Future of Saving: The Role of Pension System Design in an Aging World. IMF STAFF DISCUSSION NOTE. INTERNATIONAL MONETARY FUND. P 47.
5. Роик В.Д. Экономика, финансы и право социального страхования: Институты и страховые механизмы / Валентин Роик. – М.: Альпина Паблишер, 2013. – 257 с.
6. Рустамов Д. Ўзбекистонда пенсия тизиминимолиявийбарқарорлигинитаъминлашмасалалари. Монография. – Тошкент: “Иқтисод-молия”, 2018. – 200 б.
7. Ш.З.Давронов. “Ўзбекистонда давлат пенсия таъминоти тизимини такомиллаштириш”. Иқт. фан. бўй. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент: “Иқтисодиёт”, 2019. – 56 б.
8. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 5.
9. Маматов Б.С. Ачилов У.У. Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг молиявий барқарорлигини мустаҳкамлаш// “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 4, август, 2017 йил.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 19 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 30- сонли қарори асосида тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Пенсия жамғармаси тўғрисида”ги Низом.



ФУҚАРОЛАР ЁШИГА ДОИР ПЕНСИЯ ИШТИРОКЧИЛАРИ ҚАМРОВИНИ КЕНГАЙТИРИШ МОЛИЯВИЙ РИСКЛАРНИ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Умурқулов Фарход Мамарасулович

Ўзбекистон Республикаси

Банк-молия академияси

Тел: 993888855

Аннотация. Мақолада нодавлат пенсия фондларининг молиявий активларини бошқаришда молиявий рискларни бошқаришнинг асосий сабаблари ва муаммолари ҳақида маълумот берилди. Мақолада рискларнинг турлари ва шакллари таҳлил қилинган. Бундан ташқари, хатарларни башорат қилиш, ўлчаш ва бартараф этиш йўллари таҳлил қилинган.

Таянч сўз ва иборалар: Пенсия фонди, пенсия жамғармаси, нодавлат пенсия фонди, молиявий активлар, моливий ризк, стресс-тест, хавф, даромад, инвестициялар.

THE MAIN FEATURES OF FINANCIAL RISK MANAGEMENT IN THE MANAGEMENT OF FINANCIAL ASSETS OF NON-STATE PENSION FUNDS

Abstract. The article provides information on the main reasons and problems of financial risk management in the management of financial assets of non-state pension funds. The article analyzes the types and forms of risks. In addition, methods of forecasting, measuring and mitigating risks were analyzed.

Key words: Pension fund, pension fund, non-state pension fund, financial assets, financial risk, stress test, risk, income, investment.

1. Кириш

Ҳозирда нодавлат пенсия фондлари (НПФ) уларнинг кейинги ривожланишини муракка-блаштирадиган бир қатор муаммоларга дуч келмоқдалар. Уларни қуйидаги муаммоларни ажратиш мумкин:

- НПФ иштирокчиларнинг ҳуқуқлари ва манфаатлари етарли даражада ҳимоя қилинмаслиги;
- фуқароларни пенсия хавфидан сугурта қилиш бўйича фонд ва унинг сиёсат фаолият тўғрисида НПФ қатнашчилари га чекланган маълумот бериш;
- НПФ маблағларининг самарасиз сарфланиши ва унинг пухта ишлаб чиқилмаган инвестиция сиёсати;
- муносабатлар субъектлари томонидан ўз мажбуриятларини бажармаслик эҳтимоли катта.

Ушбу муаммоларнинг юзага келиши сабаби НПФларнинг ишлаш пайтида юзага кела-диган ўзига хос хатарлар, хусусан молиявий хатарлар билан боғлиқ. Уларни бошқариш қобилияти жамғармаларни яхшилашга имкон беради ҳамда унинг иштирокчилари олдидаги мажбуриятларини бажариш ва рентабелликни оширишни кўзда тутади.

2. Адабиётлар шархи

Молиявий операцияларни амалга оширишда рисклар мавжуд экан, уларни ўрганиш, назорат қилиш, баҳолаш ва бошқариш доимо муҳим бўлиб қолаверади. Рискларнинг иқтисодий категория сифатида юзага келишида иқтисодий муносабатларнинг ривожланиши муҳим роль ўйнайди.

А.Смит «Халқлар бойлигининг табиати ва сабабларини тадқиқ қилиш ҳақида» асарида риск ва фойда ўртасидаги ўзаро пропорционаллик тушунчасини ойдинлаштиришга ҳаракат қилган. Пропорционаллик бу фойда ва риск ўртасида жуда муҳим роль ўйновчи тушунчадир. А.Смитнинг ёзишича, «қонун бўйича рискли ҳолатлар юқори бўлган ҳолатда даромад кичик бўлади, ўз навбатида, кутилаётган даромад даражасини кўпайтириш учун назорат усусларининг салмоғи янада ортади» [1].

А.К.Солодов (2018) ўз тадқиқотларида молиявий рискларни ташкилот маблағларини шаклланиши ва ишлатилишини, ташкилотнинг молиявий ресурслари ҳажми ва тузилишини ва натижада унинг молиявий ҳолатини абадий ўзгартириши мумкин бўлган вази-ятлар (ҳодисалар), деб баҳолайди. Унинг фикрича молиявий рисклар (хатар)лар қоида



тариқасида, ташкилотнинг пул маблағлари - жамғарма фонди, захира фонdlари, истеъмол фонди ва бўш пул қолдиқларини (тақсимланмаган фойда) ташкил этадиган пул оқимларини бошқариш билан боғлиқ омиллар ва қарорлар туфайли юзага келади.

3. Тадқиқот методологияси.

Бугунги кунда молиявий таваккалчиликни бошқариш қонунчилик базасидаги ўзгаришлар билан узвий боғлиқдир. Қонунчилик базасини такомиллаштириш рискларни бошқариш бўйича тармоқ стандартларини шакллантиради, бу фонdlарда рискларни бошқаришни ташкил қилишнинг турли усулларини белгилаб берди. Ушбу стандартлар, шунингдек, рискларни бошқариш жараённада қўлланиладиган турли талаблар, методикалар ва қоидаларни ўз ичига олади.

Нодавлат пенсия фонdlарининг молиявий рискларини бошқариш усулларининг иқтисодий моҳияти ва турлари хусусида иқтисодий адабиётларда турли туман фикр ва мулоҳазалар мавжуд. Бироқ, уларнинг шакли ва шамойили турли-туман бўлгани билан мазмуни битта мақсадга қаратилган. Шу жиҳатдан ушбу масалага яна бир бор ойдинлик киритиш мақсадида: "Нодавлат пенсия фонdlари рискларини бошқариш усуллари – бу жамғарманинг ўз олдига қўйган мақсадига эришиш учун рискларни бошқариш, уларнинг хавфсиз даражасини таъминланганлигини баҳолашга хизмат қиласидиган ёндашув ва тенгликлар мажмуудир" тарзидаги иқтисодий таъриф берилган.

Рискларни бошқаришнинг норасмий усуллари деганда НПФ аналитиклари ва экспертилари томонидан маҳаллий ва халқаро молия бозорларида кечётган жараёнларни кузатиш ва таҳлиллар асосида шакллантирилган мантиқий хуоса ва тавсиялар назарда тутилади. Бундай усуллар таркибига дельфий таҳлили, морфологик таҳлил, сценарий таҳлили, коэффициент таҳлили ва бошқа таҳлил усулларини киритиш мумкин.

4. Таҳлил ва натижалар

Нодавлат пенсия фонdlарида хатарларни бошқариш (рискларни бошқариш) куйидаги тадбирларни ўз ичига олиши мумкин:

- хатарларни биринчи ўринга қўйиш;
- хатарларни башорат қилиш бўйича дастур тизимини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;
- таваккалчиликларни олдини олиш тизимини яратиш;
- хавфни камайтириш ва НПФларнинг инқироздан чиқиб кетиши механизmlарини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш.



1-расм. Нодавлат пенсия фонdlари рисклари таснифи



Нодавлат пенсия фондлари молиявий муносабатларининг бошқа субъектлари сингари жуда жиддий молиявий хатарларга дуч келади. Молиявий хатарларни қуидаги турларга ажратиш мумкин:

- ь кредит риски;
- ь нарх ёки бозор риски;
- ь ликвидлилик риски;
- ь валюта риски;
- ь инфляция риски;
- ь биржа риски;
- ь фоиз ставкаси риски.

НПФлар ҳозирда жуда тез ривожланмоқда, аммо улар ҳали ҳам мукаммал эмас. Шунинг учун биз НПФлар илгари санаб ўтилган барча молиявий хатарларни ҳисобга олишлари керак деб ҳисоблаймиз, ҳеч қандай ҳолатда уларни эътиборсиз қолдирмаслик керак. Қабул қилинган умумий хатарларни ўлчаш ва баҳолаш фонднинг ички ҳужжатлари билан белгиланган тартибда ва зарурат туғилганда қайта кўриб чиқилиши керак, лекин йилига камида бир марта.

Нодавлат пенсия фондларининг асосий мақсади келажақдаги пенсия тўловлари учун маблағлар бутлигини сақлаш ва уларни кўпайтиришdir. Бозор муносабатлари шароитида нодавлат пенсия жамғармасининг молиявий ресурслари унинг даромадлари ва харажатлари бўйича самарали қарорлар қабул қилиш, жамғарманинг молиявий барқарорлигини таъминлашга қаратилган ҳамда пенсия мажбуриятларини тўлиқ ва ўз вақтида бажариш орқали бошқарилади. Пенсия ресурсларининг ижтимоий йўналтирилганлиги ва узок муддатли хусусиятини ҳисобга олган ҳолда, НПФнинг ишончлилиги ва барқарорлигини таъминлаш учун инвестиция фаолиятини ташкил этишга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Шунинг учун НПФлари ҳар хил молиявий хавф-хатарларга дуч келади ва бу муаммони иложи борича жиддийроқ кўриб чиқиши керак.

5. Хулова ва таклифлар

Мамлакатимизда кузатилаётган макроиқтисодий ўсиш ва қимматли қоғозлар бозорида эришилаётган ютуқларнинг ўзаро боғлиқлигини таҳлил қилишда корреляцион таҳлилдан фойдаланиш мумкин. Жамғарма пенсия таъминоти тизимидағи маблағларни банк депозитлари, давлат ва корпоратив қимматли қоғозларига инвестиция қилиши мумкин, аммо бу жараёнда Пенсия жамғармаси маблағлари аҳоли маблағларидан тўплантанлиги туфайли молия бозорида мавжуд рискларга эътиборни қаратиш керак.

Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида пенсия таъминоти тизимини ислоҳ қилиш зарурлиги, тизимни модернизациялашни талаб этади. Давлат ва нодавлат пенсия таъминоти стратегиясини ишлаб чиқиши ижтимоий рискларни камайтиришни эътиборга олиниши билан характерланади.

Пенсия фондлари активларини бошқаришни тартибга солишининг асосий тамойилларидан бири бу меъёрий талаблар ҳажмининг пенсия фондларини бошқариш субъектлари томонидан қабул қилинган хатарлар ҳажмига боғлиқлиги принципидир.

ПФлари жорий ликвидликни аниқлаш учун стресс тест синовларини ўтказиши керак. Бунда ликвидлилик хавфи кўриб чиқилаётган омиллардан бири ёки бир нечтаси амалга оширилганда фонд заарларини баҳолашни ўз ичига олади.

Шунингдек, жорий ликвидлик хавфини бошқариш учун фонднинг ўзининг молиявий активлари, шунингдек, мажбуриятларини уларнинг муддатлари баланси бўйича таҳлил қилиш керак.

Шу мақсадда фонднинг молиявий оқимларини таҳлил қилиш пенсия захираларини ёки жамғармаларни олиш, иш ҳақи тўлаш, молиявий активларга кўйилган маблағлардан тушумлар ва ҳоказоларни ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши керак.

Бизнинг фикримизча, мамлакатимиз пенсия таъминоти тизимидағи маблағларни банк депозитлари, давлат ва корпоратив қимматли қоғозларига инвестиция қилиши мумкин, аммо бу жараёнда Пенсия жамғармаси маблағлари аҳоли маблағларидан тўплантанлиги туфайли молия бозорида мавжуд рискларга эътиборни қаратиш керак. Республикаизда пенсия таъминотида молиявий рискларни бошқариш учун зарур ҳуқуқий, дастурий ва услубий базани шакллантириш ҳамда ривожлантириш юзасидан амалга ошириладиган тадбирларни ишлаб чиқиши керак.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations, New York, Random House. 1937.
2. Xmirov V.V. Upravleniye kreditnimi riskami i riskami likvidnosti v deyatelnosti negosudarstvennyx pensionníx fondov // Biznes v zakone. 2013. №3.
3. Yureva I.A. va Masyuk N.N. Sistema upravleniya riskami negosudarstvennyx pensionníx fondov//. Ekonomika i upravleniye. 2016. T. 5. № 4(17).
4. Krichevskiy M.L. Finansovie riski. – M.: Izdatelstvo «KnoRus», 2012. -248 s.
5. Solodov A.K. Osnovi finansovogo risk-menedjmenta. «MasterPrint», 2018. S.13-18.
6. Brovchak S.V. Analiz riskov voznikayushix pri rabote negosudarstvennyx pensionníx fondov [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: <http://pension-npf.ru/index.php@src=233.html>.
7. Yureva I.A. Sovremenstvovaniye sistemi upravleniya razmesheniym sostvennik sredstv negosudarstvennyx pensionníx fondov // Azimut nauchnih issledovanij: Ekonomika i upravleniye. 2015. №3(12). S.98-100.
8. Khmelevskaya S.A., Orlova I.U., Ermakov D.N. Analysis of investment activities of nonstate pension funds // International Journal of Civil Engineering and Technology. 2018. V.10. №11. P.2452-2459.
9. Esaulkova T. S. Risk Management for Investment / Placement of Pension Assets. In: Bulletin of Moscow Region State University. Series: Economics, 2020, no. 2, pp. 28–37.



ЎЗБЕКИСТОН БАНКЛАРИНИНГ ЕВРООБЛИГАЦИЯЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Ахманов Баҳтиёр Вахобович

Ўзбекистон Республикаси
Банк-молия академияси магистранти
Телефон: +998977381272
abvahobovich@gmail.com

Аннотация. Ушбу мақолада халқаро капитал бозори конъюнктурасини ўрганиш орқали барқарор молиялаштириш манбаларини жалб қилишда мамлакатимиз банклари олдида турган муаммолар ўрганилган.

Калит сўзлар: еврооблигация, капитал бозори, бенчмарк, инвесторлар, эмитент, эмиссия, тижорат банклари, статистик таҳлил, корпоратив облигациялар, рейтинг агентлиги, ковенант, диверсификация.

Abstract: This article examines the challenges facing domestic banks in attracting sustainable sources of financing through the study of international capital markets.

Key words and phrases: eurobond, capital market, benchmark, investors, issuer, issue, commercial banks, statistical analysis, corporate bonds, rating agency, diversification.

Маълумки, ривожланган капитал бозори аҳоли турмуш даражасининг ўсишига, бизнес вакиллари учун маблағлар манбаларини диверсификация қилишга, давлатнинг хусусийлаштириш дастурига ижобий таъсир кўрсатади. Мазкур жараёнларнинг асосий бенефициарлари мамлакат аҳолиси ҳисобланади.

Ўзбекистон банкларининг халқаро капитал бозорларига чиқиши орқали барқарор молиявий ресурслар билан таъминланиши, иқтисодиётни эркинлаштиришнинг асосий воситаларидан бири ҳисобланади.

Янги молиявий инструментларни жорий этиш ва облигациялар чиқариш орқали, банк хизматлари кўламини янада кенгайтириш, илғор ахборот технологиялари асосида банк тизимини ривожлантириш зарур. Инвесторлар мамлакатимизда ўзини имкон қадар эркин ҳис қилишлари учун валюта бозорини янада эркинлаштириш талаб этилади¹.

Еврооблигациялар эмитентларини қўйидаги икки йирик гурӯхга ажратиш мумкин:

- Суверен қарздорлар ва халқаро ташкилотлар;
- Банклар, бошқа кредит ташкилотлари, миллий ва трансмиллий корпорациялар.

Суверен еврооблигацияларнинг энг яхши намунаси сифатида АҚШ ғазначилик облигацияларини (Treasury bonds (T-bonds)) келтириш мумкин.

Облигация – бу эмитент (қарздор, қарз олувчи) томонидан олинган қарз ва унга ҳисобланган фоизни ўрнатилган вақт оралиғида кредитор (инвестор) га тўлаш мажбуриятини юклайдиган қарз инструменти (Фабоцци, 2007).

Кўплаб хорижий облигациялар жойлаштириладиган бозори бўйича тарихий номларига эга, масалан, yankee bonds (АҚШда), samurai bonds, shogun bonds (Японияда), bulldog bonds (Англияда), rembrandt bonds (Нидерландияда), matador bonds (Испанияда), kangaroo bonds (Австралияда) ва бошқалар.

Еровалютадаги қарз қимматли қоғозлар бирор давлат миллий қонунчилиги билан тартибга солинмайди, бирок, Халқаро қимматли қоғозлар ассоциацияси (International Securities Market Association – ISMA) тартибларига амал қиласди. Қатъий фоиз ставкали еврооблигациялар 1000-5000 АҚШ доллари номинали билан 3, 5, 7 ва 10 йил муддатларга чиқарилади. Сўндириш муддати бундан узоқроқ муддатли еврооблигациялар одатда миллий ҳукуматлар томонидан эмиссия қилинади (Федякина, 2005).

Еврооблигациялар асосан қўйидаги хусусиятларни қамраб олади:

- одатда облигация бозоридан жалб қилиниши мумкин бўлган маблағ миқдори алоҳида банк томонидан тақдим қилиниши мумкин бўлган маблағдан йирик бўлади;
- қарз инструментини узоқ муддатга жойлаштириш имконияти;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.
URL: <https://president.uz/uz/lists/view/2228>



- еврооблигация эмиссияси ўрнатилган бозор тарибларига асосан амалга оширилади (масалан, мажбуриятлар бўйича ҳисоб-китоблар клиринг системаси, яъни Euroclear ва Clearstream орқарли ижро этилади);
- еврооблигациялар гаров тақдим этилмасдан эмиссия қилинади, бундан ташқари жалб қилинган ресурслардан фойдаланиш бўйича чекловлар киритилмаган;
- фойда еврооблигация эгаларига тўлиқ равишда, даромад манбаидан солик ушлаб қолмаган ҳолда тўлаб берилади (Буклемишев, 1999).

Облигация (лотинчадан obligation, мажбурият) – муддатли қарз берувчига ушбу қимматли қоғозда ёзилган номинални олдиндан келишилган вақтдан сўнг қатъий фоиз тўловлари билан тўлашни тасдиқловчи қимматли қоғоз. Айрим облигациялар бўйича даромад сузуви фоиз ставкада ёки дисконт билан тўланиши мумкин (Шохаъзамий, 2005).

Қимматли қоғозлар бозори тўғрисидаги қонунда (2015) облигация — эмиссиявий қимматли қоғоз бўлиб, у облигацияни сақловчининг облигациянинг номинал қийматини ёки бошқа мулкий эквивалентини облигацияни чиқарган шахсадан облигацияда назарда тутилган муддатда олишга, облигациянинг номинал қийматидан қатъий белгиланган фоизни олишга бўлган хуқуқини ёхуд бошқа мулкий хуқуқларини тасдиқлайди деб таъриф берилган. Корпоратив облигациялар — акциядорлик жамиятлари, масъулияти чекланган ва қўшимча масъулияти жамиятлар томонидан чиқариладиган облигациялар.

Корпоратив еврооблигациялар эмиссияси Ўзбекистон эмитентларидан халқаро стандартларда молиявий ҳисботни, фаолият шаффофлигини ҳамда бизнес учун имконият ва хатарларни белгиланган муддатларда очиқлашни талаб этади. Халқаро рейтинг агентликлари, аудитор, андеррайтер, юридик компаниялар, йирик инвестицион банклар ва халқаро биржа вакиллари ушбу жараёнда иштирок этиб, эмитентнинг кредит профилини батафсил таҳлил қиласди. Эмиссия проспектида белгиланган шартлар, ҳисботларни ўз муддатида очиқлаш мажбурияти компания менежерларини самарали фаолият юритишга ундаиди.

Корпоратив эмитентнинг рейтинг даражаси суверен рейтинг даражасида (Country Ceiling) бўлиши эмиссия харажатларини пасайтиради. Суверен рейтинг даражаси бизнес мухитнинг асосини ташкил этишидан корпоратив қарз таннархига бевосита таъсир қиласди.

Корпоратив эмитентлар, хусусан тижорат банкларининг рейтинг даражасини баҳолашда рейтинг агентлиги томонидан қуидаги асосий қўрсаткичлар таҳлил қилинади:

Кўрсаткич номи	Таҳлил қамрови
Бизнес-позиция	<ul style="list-style-type: none"> Бизнес-моделнинг барқарорлиги Рақобат позицияси Тармоқларнинг ривожланганлик даражаси
Капитал	<ul style="list-style-type: none"> Капиталнинг рискка тортилган активларга нисбати
Фойдалилик	<ul style="list-style-type: none"> Фойданинг актив ва капиталга нисбати Операцион самарадорлик
Активлар сифати	<ul style="list-style-type: none"> Кредит портфелидаги муаммоли кредитлар улуши Рискларнинг концентрация даражаси
Ликвидлик ва қарз мажбурияти	<ul style="list-style-type: none"> Активлар ва мажбуриятларнинг муддатлар бўйича монандлиги Ресурс базасининг таркиби
Ташқи қўллаб-куватлаш	<ul style="list-style-type: none"> Давлат / акциядорлар билан алоқа Давлат / акциядорлар томонидан қўллаб-куватлаш имконияти

1-жадвал. Рейтинг даражасини баҳолашдаги асосий қўрсаткичлар¹

¹ Fitch Ratings, S&P Global Ratings, Moody's



2020 йил 12 майда Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5992-сонли “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги Фармони билан Ипотека-банк, Ўзсаноатқурилишбанк, Асака банк, Алоқабанк, Қишлоқ қурилиш банк ва Туронбанқдаги давлат улушларини босқичмабосқич хусусийлаштириш, бунда биринчи босқичда банклар фаолиятини халқаро молия институтлари кўмагида трансформация қилиш, иккинчи босқичда эса давлат акциялари пакетини стратегик инвесторларга сотиш назарда тутилган.

Еврооблигация эмиссиясига қарор қилган эмитент хорижий валютада кредитлаш манбани шакллантиришнинг валюта рискини инобатга олиши ва қарзнинг хавфсиз даражада бўлишини мониторинг қилиб бориши керак. Банкнинг кредит портфели ва мажбуриятлари таркибида долларлашув даражасининг ошиши ҳамда маблағларни транзакция номиналидан бошқа валютада даромад келтирадиган активларга жойлаштириш эмитентнинг ташқи факторларга таъсирчанлик хавфини ҳам ошириб валюта йўқотишларига олиб келади.

Банк тизимидағи давлатнинг юкори улуши бевосита банк активлари ва капитал даромадлилигига салбий таъсир қиласиди. Давлат акциялари пакетини хорижий стратегик инвесторларга сотиш келгусида мазкур тижорат банклари фаолиятини халқаро даражага олиб чиқишида муҳим омил ҳисобланади.



**MAMLAKATDA INVESTITION MUHITNI SHAKLLANTIRISH- INVESTITSION
JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA (JANUBIY KOREYA
MISOLIDA)**

Ikramova Mehribon Abdushukurovna

ToshDShU Koreyashunoslik fakulteti

"Koreya tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti"

kafedrasи stajor-o'qituvchisi

Telefon:+(99899)9846252

ikramovamehribonu@gmail.com

Abbos Asadov Hamro o'g'li

ToshDShU Koreyashunoslik fakulteti,

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va

mamlakatshunoslik yo'nalishi

2-bosqich koreys-ingliz guruhi talabasi.

Telefon:+(99894)3330726

Kingabbosuz@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya muhitining muhim ahamiyat kasb etishi, mamlakatning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga nisbatan jozibadorligi, Koreya Respublikasi qulay investitsiya muhitini shakllantirishda amalga oshirgan islohotlari va yaratgan omillari o'r ganilgan. Shuningdek, maqolada Janubiy Koreyaga kiritilgan investitsiyalarning hajmi va mamlakatlar bo'yicha investorlarni himoya qilish ko'rsatkichlari tahlili ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, investitsion muhit, investitsiya salohiyati, iinvestitsion jozibadorlik.

Mamlakatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi va shuningdek, iqtisodiyotda investitsiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishning ko'lami, yo'nalishlari va samaradorligi, olib borilayotgan investitsiya faoliyatining o'sish sur'atlari investitsiya muhitiga bog'liq bo'ladi.

Investitsiya muhiti tushunchasi o'zining murakkabligi jihatidan makro va mikro iqtisodiyot darajasida ko'rib chiqiladi[1]. Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosi, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o'z ichiga oladi. Makroiqtisodiyot darajasida yondashilganda investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati, xalqaro shartnomalar shartlarini bajarish, xorijiy mulkni milliylashtirish, turli masalalar bo'yicha xalqaro shartnomalar tizimida ishtiroy etish, davlat boshqaruv tizimlarining mustahkamligi, siyosiy rahbariyatning muqarrarligi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi, iqtisodiy siyosatning mukammalligi va boshqalar hal qiluvchi o'rinda turadi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsiya muhiti bir tomondan investor firmasi va ikkinchi tomondan xorijiy investitsiyani qabul qiluvchi xo'jalik sub'ektlari, ya'ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushma va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi ikkiyoqlama munosabatlarni aks ettiradi. Bu darajada investitsiya muhiti umumlashtirilgan baholar iqtisodiy, huquqiy va madaniy jabhalarda yaqqol ko'rindi.

Albatta, har tomonlama qulay investitsiya muhiti biznes tuzilmalarning faoliyati samaradorligiga ta'sir etadi, bu esa investitsiyalashga xos bo'lgan daromadlar va kapitalning o'shishiga olib keladi. O'z navbatida, investitsiya muhiti investorlarning mamlakatga va davlatning iqtisodiyotiga nisbatan harakatlariga ishonchini oshiradi, uzoq muddatli investitsiyalashga yo'l ochadi.

Har qaysi investor ma'lum bir mamlakat hududiga investitsiya kiritishdan oldin o'sha mamlakatning investitsiya muhitini baholagan holda, uning qanchalik jozibadorligini tahlil qiladi. Chunki investor uchun birinchi galda sarmoya kiritayotgan mamlakatda investorlarning huquqlari himoya qilingan bo'lishi kerakligi va har qanday holatda ham sarmoyadan kata daromad ko'rish muhim sanaladigan omil hisoblanadi. Shuning uchun ham rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda maxsus investitsiya loyihibarini baholaydigan, investitsiyalar qo'yilishiga talab bo'lgan davlatlarni investitsiya muhitini o'rganadigan va aniq xulosalarni investorlar uchun beradigan firmalar, tashkilotlar mavjuddir.

Ayni shunday tajribani o'zida sinab ko'rgan mamlakatlardan biri Koreya Respublikasıdir.



Ko'pgina tadqiqotlar Janubiy Koreyaning mamlakat qulay investitsion muhitni shakllantirish orqali investitsiyalarni jalb qilish masalalariga kuchli e'tibor qaratgani uning muvaffaqiyatining eng muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Xususan, Koreya Respublikasi asosiy e'tiborini qulay investitsiya muhitini shakllantirishga qaratgan holda, investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli dasturlar va sa'y-harakatlarni izchillik bilan amalga oshirib, ham xorijiy ham mahalliy sarmoyadorlarga mamlakatning investitsiya bozorini ochib berdi. O'z navbatida, bu jarayonda olib borilayotgan islohotlar tezkor va uzoq muddatli bo'lganligi bilan ham juda ahamiyatlidir.

1-jadval.

Koreya Respublikasi qulay investitsiya muhitini shakllantirishda amalga oshirgan islohotlari	
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ta'rifini kengaytirish	Investitsiya jarayonlarini soddalashtirish.
Kengaytirilgan soliq-budget siyosatini isloh qilish	Investitsion imtiyozlarni kengaytirish
Korxona ro'yxatdan o'tish talablarini yengillashtirish	Xorijiy investitsiyalar uchun qo'shimcha tarmoqlar ochish
Iqtisodiy qarorlar qabul qilishda noaniqliklarni kamaytirish	Investitsiyalarga bo'lgan cheklovlanri bosqichma-bosqich kamaytirish

Manba: Jung Min Kim and Dong Kee Rhe "Trends and Determinants of South Korean Foreign Direct Investment", 2009 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Yuqorida ta'kidlangan islohotlar natijasida Koreya Respublikasi investitsiya muhiti yaxshilana bordi va mamlakat faol sarmoyani jalb qilish strategiyasiga tayangan holda qisqa muddatda katta sarmoyalarni jalb qila oldi. Iqtisodiyotda liberallashtirish harakati yangi bosqichga chiqdi va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar mamlakatni qayta tiklash strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida belgilandi. Bundan tashqari, mamlakatda qonun ustuvorligini mustahkamnishi natijasida jalb qilinayotgan sarmoyadorlar va ularning investitsiyalari havfsizligi, ularning huquqlari ta'minlandi. Bu esa o'z navbatida investorlarning mamlakatga bo'lgan qiziqishini keskin oshirdi. Shunday qilib Koreyaning to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan tashqi investitsiyalari siyosati "cheklash va boshqarish" dan "rag'batlantirish va yordam" ga o'tdi.

Quyidagi jadvalda Koreya Respublikasiga kiritilgan investitsiyalarning hajmini ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval

Koreya Respublikasiga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning dinanikasi (mil. AQSh dollar)

Mamlakat	2014	2015	2016	2017	2018
AQSh	1 859.5	821.0	1 050.0	1 118.2	2 087.0
Kayman orollari	121.0	301.0	486.0	174.1	460.4
Niderlandiya	1 015.1	343.0	616.0	1 113.7	133.1
Shvetsariya	429.6	253.6	401.1	185.8	26.3
Germaniya	303.9	252.8	3.0	704.7	255.1
Lyuksemburg	1 009.5	189.6	92.0	186.5	146.8



Italiya	140.6	37.6	68.0	60.9	8.4
Buyuk Britaniya	176.4	810.2	153.0	1 151.8	149.0
Ispaniya	86.2	33.6	45.0	6.8	1 389.7
Yaponiya	443.9	634.2	1 052.0	1 362.6	1 050.9
Singapur	1 379.1	364.8	425.0	1 020.5	1 441.8
Xitoy	312.0	106.9	347.0	148.3	758.4

Manba: oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/oecd-international-direct-investment-statistics-2019.04cb7e22, OECD International Direct Investment Statistics 2019

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2014-2018 yillar oralig'ida AQSh, Singapur, Nederlandiya va Lyuksemburg kabi davlatlar yirik investor mamlakatlar qatoridan joy oldilar. Xususan, 2014 yilda AQSh 1859.5 mln. AQSh dollar, Singapur 1379.1 mln. AQSh dollar, Niderlandiya 1015.1 mln. AQSh dollar miqdorda investitsiya kiritdi. Bu yilda Ispaniya, Kayman orollari, Italiya va Buyuk Britaniya eng kam miqdorda investitsiya kiritgan. 2018 yilda AQSh 2087 mln AQSh dollar, Singapur 1441.8 mln AQSh dollar, Yaponiya esa 1050.9 mln AQSh dollar investitsiya kiritdi. Ispaniya ham 2018 yilda yirik investorlar qatoriga kirgan holda 1389.7 mln. AQSh dollar investitsiya kiritdi.

Shu bilan birga, hozirgi paytda Koreya Respublikasida iqtisodiy jihatdan qulay investitsiya muhiti yaratilganligini quyidagi omillar amal qilishi orqali ko'rishimiz mumkin [1]:

- samarali investitsiya siyosatini amalgalash oshirishda davlatning oliy o'rni;
- investitsiyalar oqimini rag'batlantiruvchi qulay investitsiya muhiti;
- bank tarmog'i va moliya bozorining barqaror rivojlanishi;
- investitsiya siyosatining tizimliligi va butunligi;
- investitsiya jarayonlarini tartibga solishning bir tartibga solinganligi;
- ijtimoiy kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalashga o'ziga xos ustuvorlik.

Koreya hukumati investitsion muhitni yaxshilash hamda bu boradagi muammolarnini hal qilish borasida quyidagi markazlarni faoliyatini yo'lga qo'ygan. Xususan, Savdo va investitsiyalarini rivojlantirish bo'yicha Koreya agentligi (KOTRA) Koreya investitsiyalariga xizmat ko'rsatish markazini (KISC) xorijiy sarmoyadorlar uchun investitsiyalarni ma'muriy qo'llab-quvvatlash, maslahat xizmatlari va investitsiyalardan keyingi xizmatlarni ko'rsatuvchi yagona darcha sifatida ochdi [2]. Bu markazda to'g'ridan-to'g'ri yoki ishonchli vakil orqali investitsiyalarga oid maslahatlar, ko'rsatmalar, e'lonlar, taddiqotlar hamda investorlarni va sarmoyalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralari ham olib boriladi [3].

Shu bilan bir qatorda, Koreyaning Savdo va Investitsiyalarini Rag'batlantirish Agentligi huzurida chet el sarmoyasi ishtirokidagi kompaniyalarning muammolarini hal qilish uchun ham shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ariza berish organi tashkil etilgan.

Hattoki, mustaqil xorijiy investitsiyalar bo'yicha Ombudsman (OFIO) Koreyadagi Invest Korea bilan hamkorlikda xorijiy investorlarni "yagona darcha" xizmati bilan ta'minlash uchun tuzilgan¹. Ushbu tashabbuslar ustuvor sanoat tarmoqlarini jalb qilish va tegishli davlat tuzilmalari o'rtaida o'zaro hamkorlik mexanizmlarini yaratish orqali joriy investitsiyalarini jalb qilish tizimining samaradorligi va ko'lamini oshirishga hamda mamlakat hududida investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan. Shu maqsadda hukumat investitsion muhitini shakllantirish choralarini rag'batlantirgan holda, "yagona darcha" xizmat ko'rsatish tizimini va xorijiy investorlarni qo'llab-quvvatlash tizimini modernizatsiya qilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, Janubiy Koreyaning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga nisbatan jozibadorligini mamlakatning jadal iqtisodiy rivojlanishi, ishbilarmonlik muhitini yaxshilanishi, innovatsiyalarga sarmoyalarni jalb qilishni rag'batlantiruvchi siyosati va mamlakatning yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ixtisoslashganligida ham ko'rish mumkin. Albatta, investitsiya kiritilayotgan mamlakatda investorlarning qanchalik himoya qilinganlik darajasi muhim rol o'ynaydi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilda mamlakatlar bo'yicha investorlarni himoya qilish ko'rsatkichlari bo'yicha Janubiy Koreya 25-o'rinni egallagan. Quyidagi jadvalda, 2020- yilda investorlarni himoya qilish ko'rsatkichlari bo'yicha Koreya Respublikasi Xitoy, Yaponiya, Braziliya, Avstraliya kabi mamlakatlar bilan taqqoslangan.. (3-jadval)

¹ Lessons from Investment Policy Reform in Korea, OECD Working Papers on International Investment, 2013/02, OECD Publishing (2013).



3-jadval

Mamlakatlar bo'yicha investorlarni himoya qilish ko'rsatkichlari

	Koreya	Avstraliya	Braziliya	Xitoy	Yaponiya
Korparativ oshkoralik indeksi (0-7)	6	7	6	6	5
Direktorlarning javobgarlik indeksi (0-10)	6	2	8	4	6
Oshkor qilish indeksi (0-10)	8	8	5	10	7
Egalik va boshqarish indeksi (0-7)	5	3	4	6	2
Aksiyadorlar huquqi indeksi(0-6)	4	4	4	5	4
Aksiyadorlarga qulaylik indeksi (0-10)	8	8	4	5	8

Manba: Doing business, 2020. <https://www.doingbusiness.org/en/data/exploreeconomies/korea>

Xullas, investitsiya muhitini investorlarning samarali va erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilgan muhit bo'lib, uning investorlar uchun qulayligi, jozibadorligi unga ta'sir etuvchi huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning ta'sir darajasiga bevosita bog'liqdir. Qulay investitsiya muhitini yaxshilash oraqali esa investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini yaratish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalg etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddallashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Umuman olganda, Koreya Respublikasida investitsiyalarni jalg etishda yaratgan qulay va jozibador investitsion muhitini va undan samarali foydalanishning ijobjiy tajribasi bizni ayrim mulohazalarga chorlaydi. Xorijiy investitsiyalarning jalg qilishda mamlakatdagagi qonun ustuvorligi va mukammal soliq tizimini yaratish va umuman investitsiya siyosatini hukumat tomonidan to'g'ri va shaffof olib borish, har qanday davrga moslashuvchan muhit va qulayliklarni yaratish bo'yicha oddiy bo'limgan masalani hal etish davr taqozosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010.
2. Jung Min Kim and Dong Kee Rhe “Trends and Determinants of South Korean Foreign Direct Investment”, 2009. KOTRA can be found online at: <http://www.kotra.or.kr>.
3. Lessons from Investment Policy Reform in Korea, OECD Working Papers on International Investment, 2013/02, OECD Publishing (2013).
4. "The Economic History of Korea". EHnet.p23-p32, 2014-2015
5. Kong Tat Yan The Politics of Economic Reform in South Korea: A Fragile Miracle. — Routledge (UK), 2001. — C. 138.
6. Ahn, Choong Yong (2008), “New Direction of Korea’s Foreign Direct Investment Policy in the Multitrack FTA Era: Inducement and Aftercare Services”, OECD Global Forum on Investment, March 27-28.
7. Jung Suk-yee “Foreign Direct Investment in Korea”, p21- 2019
8. <https://santandertrade.com/es/portal/establecerse-extranjero/corea-del-sur/inversion-extranjera>
9. <https://www.doingbusiness.org/en/data/exploreeconomies/korea>
10. <http://history.kotra.or.kr/kh/index.html>.
11. <http://www.kotra.or.kr>.



SANOAT KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINING ASOSIY TAMOYILLARI

Mamatkulova Nodira Maxkamovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti
dotsent v.b.
e-mail: nodirabegim.777@mail.ru,

Annotasiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida sifatni boshqarish mexanizmdagi maqsadli dasturning ilmiy-nazariy jihatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sanoat korxonalarini, sifatni boshqarish, sifatni boshqarish mexanizmi, maqsadli dastur, mahsulot sifatining darajasi, differensial usul, kompleks usul, aralashgan usul va statistik usul.

Sanoat korxonalarida sifat menejmenti tizimi – bu korxona sifat bilan bog'liq vazifalarni hal qiladigan usuldir. Keng ma'noda u mahsulot sifati sohasida belgilan maqsadlarga erishish va iste'molchilar talablarini qanoatlantirish uchun qo'llaniladigan korxonani tashkiliy tuzilmasi, hujjatlari, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarni qamrab oladi. Sanoat korxonalarida sifat menejmenti tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Iste'molchiga yo'nalganlik. Sanoat korxonalarini o'zining iste'molchilariga tobe bo'ladi va shuning uchun ularning joriy va kelgusidagi ehtiyojlarini tushunishi, ularning talablarini bajarishi va kutganidan ham ortiq yaxshi natijaga erishishi lozim.

2. Rahbarlarning peshqadamligi (sardorligi). Sanoat korxonalarida rahbarlar korxonaning maqsadi va faoliyati yo'nalishini yagonaligini ta'minlaydi. Rahbarlar korxona oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga xodimlarni jalb etish mumkin bo'ladigan ichki muhitni yaratish va saqlashi lozim3. Xodimlarning jalb qilinishi.

3. Xodimlar qobiliyatlaridan unumli foydalanish. Barcha pog'ona xodimlari korxona asosini tashkil etadi va ularni ishga to'liq jalb etilishi korxonaga xodimlar qobiliyatlaridan unumli foydalanish imkonini beradi. Har bir xodim sifatni ta'minlash ishida o'zining muhimligini tushunishi va sifatni yaxshilashda o'z vazifalariga ega. Xodimlarni to'liq jalb qilinishi ularni qobiliyatlarini korxona uchun maksimal foya olishda qo'llash imkoniyatini beradi.

4. Jarayonli yondoshuv. Korxonaning faoliyati va mayjud resurslar jarayon tarzida boshkarilganda kutilgan natija samarali bo'ladi. Sifat menejmenti tizimi bazaviy modeli sharoitlarida korxona bu tamoyil asosida mahsulot va xizmatlarni loyihalash, ishlab chiqarish va yetkazish jarayonlarini aniq belgilaydi.

5. Boshqarishga tizimli yondoshuv. Korxona o'z maqsadlariga erishishda o'zaro bog'liq jarayonlarni aniqlashi, tushunishi va boshqarishi korxonani samaradorligi va yuqori tashkiliy-texnikaviy darajasiga hissa qo'shamdi. Sifat menejmenti tizimi bazaviy modelini ishlab chiqishda bu tamoyil, korxona mahsulot yoki xizmatlarni yaratish jarayonlarini mahsulot yoki xizmatlarni buyurtmachi ehtiyojlariga muvofiqlikka tekshirish jarayonlari bilan birlashtirishga harakat qilayotganligini ta'kidlaydi.

6. Doimiy yaxshilash. Korxonaning faoliyatini doimiy yaxshilashga o'zgarmas maqsad deb qaralishi lozim. Korxona sifat menejmenti tizimi faoliyati orqali buyurtmachini kelajakdag'i ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish va joriy qilingan jarayonlarni eng yaxshi natijalarga erishishini o'z maqsadi deb qaraydi.

7. Faktlarga asoslangan qarorlarni qabul qilish. Samarali qarorlar ma'lumotlarni va axborotlarni tahsil etishga asoslanadi. Sifat menejmenti tizimi faoliyatiga taalluqli qarorlarni qabul qilish uchun bu darajada faktlar va ma'lumotlar qo'llaniladi. Bunda ma'lumotlar manbalari bo'lib auditorlar, to'g'rilovchi amallar, jarayonlar faoliyati, buyurtmachilarni shikoyatlarini tahlillari natijalari, shuningdek boshqa manbalar hisoblanadi. Tahlilda qanoatlanganlik darajasi va sifat menejmenti tizimi samaradorligini oshirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga alohida e'tibor beriladi.

8. Yetkazib beruvchilar bilan o'zaro manfaatli munosabatlar. Korxonalar va ularning yetkazib beruvchilari o'zaro bog'liq bo'ladi va o'zaro manfaatli munosabatlar ikkala tomonning moddiy boylik yaratish imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalilanigan manbalar:

1. <https://gostehstroy.ru/uz/idei/chto-predstavlyaet-soboi-sistema-upravleniya-kachestvom-upravlenie-kachestvom/>
2. <https://www.gozetim.com/uz/belgelendirme/iso-9001>



QURILISH MAHSULOTINI SOTISH SIYOSATI

Shamsutdinov Xusan Sherbutayevich

Toshkent arxitektura-qurilish instituti, Assistent
+998 97 4247407,

Annotasiya: Ushbu maqolada qurilish mahsulotini harakati va sotish siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariji jihatlari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: qurilish mahsuloti, tovarni bozorga yo‘naltirish, mahsulot harakati, sotish siyosati, jismoniy taqsimlash, savdo tarmoqlari, ulgurji va chakana savdo do‘konlari, tovarlarni saqlash, saralash.

Bugungi kunda sanoati rivojlangan davlatlar yetakchi kompaniyalari tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun mahsulotni sotish, taqsimlash tizimini to‘g‘ri tashkil eta olish layoqatiga ega bo‘lish kerak. Buning uchun qurilish mahsulotlar bozoridagi talabni chuqur o‘rganish natijasida kompaniyani sotish siyosatini ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Korxonaning tovarni bozorga yo‘naltirish va sotish siyosati – bu korxona mahsulotlarini taqsimlash hamda joylashtirish kanallarini kengaytirish faoliyatining asosiy tamoyilidir. Mazkur siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish samaradorligi korxona tovarlariga bo‘lgan talab darajasi, shuningdek, korxonaning ishlab chiqarish-sotish, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv imkoniyatlariga bog‘liqdir. Korxona tovarini bozorga yo‘naltirish va sotish siyosatini ishlab chiqishda uning strategik rivojlantirish maqsadlari hisobga olinadi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish va maksimal foyda olish korxonaning tovarlarni sotish sohasidagi harakatlarining yakuniy natijasidir. Marketing bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan bir qator olimlar tovarni bozorga yo‘naltirish va sotish siyosatini tovarlarni jismoniy hamda tijorat nuqtai nazaridan taqsimlash, sotish nuqtalarini aniqlash strategiyasi faoliyatini deb qaraydilar. Jismoniy taqsimlash – tovarlarni saqlash, saralash va ortish bilan bog‘liq faoliyatdir. Tijorat taqsimlanishi esa aloqalarning o‘rnatalishi, sotuvchi va xaridor o‘rtasida muloqotlarning olib borilishi va savdo kelishuvlarining tuzilishi, tovarga egalik qilish huquqini bir sub'ektdan ikkinchisiga berilishi bilan bog‘liqdir.

Sotish siyosatining vazifasi sotuvni samaraliroq bo‘lishiga qaratilgan savdo tarmoqlarini tashkil etish, shuningdek, ulgurji va chakana savdo do‘konlari shoxobchalarini yaratishdan iborat bo‘lib, uchta o‘zaro bog‘langan bosqichlarga ajratiladi.

Birinchi bosqich – tayyorlov bosqichi bo‘lib, unda sotish siyosatini amalga oshirishga qaratilgan strategik faoliyat rejalshtiriladi va ishlab chiqiladi. Ma'lum bir ehtimollik darajasi bilan tovarlarni sotish hajmi iste'molchilarga aniq taqsimlashga muvofiq, aniq vaqt oralilolar bo‘yicha hisoblab chiqiladi yoki bashorat qilinadi. Tovarlarni ulgurji bazalar, omborxonalar va magazinlarga yetkazishning eng maqsadga muvofiq vositalari aniqlanadi, sotuvni amalga oshirish kanallari tanlanadi, sotish nuqtalari shoxobchalarini tuzish belgilanadi, ulgurji xarid qiluvchilar, distribyutorlar va agentlar tanlab olinib o‘rganiladi. Mazkur bosqichda amalga oshirilgan ishlarning qay darajada o‘ylab, sifatli bajarilganligi keyingi bosqich ishlarining muvaffaqiyatli bo‘lishi yoki omadsiz tugallanishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich – tovarni joylashtirish tizimini tashkil etishga qaratilgan ani? faoliyat bo‘lib, tovarni tayyorlovchidan belgilangan manzilga, jumladan, ulgurji savdo bazalariga, chakana savdo do‘konlariga, iste'molchilarga yetkazib berish jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu bosqich jahon amaliyotida distribusiya deb nomlanadi.

Uchinchi bosqich – bevosita sotuvni amalga oshirish, xususan sotuv kanallari chegarasida joylashtirilgan tovarlarni xarid qiluvchi, yakuniy xaridorlar bilan bog‘liq ishlarni tashkil etish risoblanadi. Korxonaning iste'molchiga ta'siri sotish siyosati orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu mexanizm iste'molchiga tovarni unga qulay bo‘lgan joyga va vaqtida yetkazib berishni o‘z ichiga oladi. Korxona sotish siyosatining asosiy vositasi tovarni yetkazib berish joyi hisoblanadi, ya‘ni sotish kanallarini aniqlash, vositachilar turini tanlash, shuningdek, bitta darajadagi vositachilar sonini belgilab olish.

Foydalanilgan manbalar:

- 1.https://uz.wikiquote.net/wiki/Building_material
2. <https://ice-mc.ru/uz/predmety-i-sredstva-truda-v-stroitelnom-proizvodstve-ekonomiceskaya>



QURILISH TASHKILOTLARI MARKETINGINI STRATEGIK VA OPERATIV BOSHQARISH

Xalilova Aziza Rustamovna

Toshkent arxitektura qurilish instituti
katta o'qituvchi,
e-mail: Malikam.uz@mail.ru,
(+998 90) 977-20-60,

Annotasiya: Ushbu maqolada qurilish tashkilotlari marketingini strategik va operativ boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlari ko'rsatib berilgan.

Tayanch iboralar: Qurilish tashkilotlari marketingi, strategiya, strategik boshqarish, operativ boshqaruv, raqobat, innovatsion texnologiyalar, biznes jarayonlar, marketing faoliyati.

Korxonalarining marketingini strategik boshqarishda strategik g'oyalar firmaning harakat das-turiga aylanadi. Bu dasturda strategik maqsadlar aniqlanadi va tanlangan rivojlanish strategiyasining amalga oshirilishini ta'minlovchi vositalar belgilanadi. Qurilish tashkilotlari marketingini strategik boshqarishda korxonaning uzoq kelajakdagi taraqqiy etishi uchun bozordagi o'zgarishlarni o'z vaqtida oldindan ko'ra bilish hamda o'z strukturasi va tovar portfelinining tarkibini tegishli ravishda moslashtirish chora-tadbirlarini strategik rejalshtirish, tashkil etish va boshqarish amalga oshiriladi. Strategik marketing rejasining maqsadi - firmaning uzoq muddatli taraqqiyotini ta'minlash maqsadida tanlangan strategiyasini aniq va izchil bayon tavsiflab berishdir. Bu tanlov asta-sekin qarorlar va harakat dasturlariga aylanishi kerak. Quyida rejaning umumiy tuzilishini va strategik rejalshtirishdan kutiladigan foydalarni ko'rib chiqamiz.

Strategik marketing boshqaruvini rejalshtirishda firmaning maqsadlarga mos ravishda quyidagilar belgilanadi:

- biznesning ko'rinishi (ya'ni firma uchun asosiy bozorlar) va firmaning bu bozordagi strategik missiyasi;
- tovar bozorlarida firmaning pozitsiyasi;
- tovar bozorlarining ob'eaktiv jalb qiluvchanligi va unga bog'liq bo'lган imkoniyat va xatarlar;
- firmaning bozordagi tovarlarga nisbatan farq qiluvchi jihatlari, uning kuchli va zaif tomonlari va raqobatli ustunliklari;
- bozorni qamrab olish va rivojlanish strategiyalari.

Qurilish tashkilotlari marketingini operativ boshqaruvini korxonaning marketing boshqaruvida faol qo'llaniladigan tizimlarni boshqarish majmui tashkil etadi. Korxonada marketing tizimini ishlab chiqish, marketing faoliyat jarayonlarini boshqarish, hujjalarni boshqarish va kadrlar bilan bevosita bog'liq bo'lмаган, lekin boshqaruv jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa jarayonlarni boshqarish tushuniladi. Operatsion boshqaruv ko'pincha biznes-jarayonlarni bajarish tezligi va natijalar sifatini yo'qotmasdan kompaniya xarajatlarini kamaytirish bilan bog'liq maqsadlarga ega. Aslida, operatsion boshqarish qo'shimeha qiymat olish uchun muhim bo'lган asosiy ish jarayonlari va operatsiyalarni samarali boshqarishga, shuningdek, yordamchi biznes jarayonlarini to'g'ri tashkil etish orqali asosiy biznes jarayonlarini samarali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Operatsion boshqaruv uchun kirish ma'lumotlari strategik boshqaruv natijalari hisoblanadi, chunki ichki biznes jarayonlarini qurishda kompaniyaning qaysi bozor segmentida ishslashini va muayyan raqobat afzalliklarini olish uchun biznes jarayonlarining maqsadli parametrlariga erishish kerakligini tushunish kerak. Operatsiyalar boshqarish tashkilotning turli idoralar o'rtasidagi hamkorlikni samarali rivojlantirishga ham yo'naltiriladi. Operatsion boshqaruvda kompaniya marketing samaradorligini oshirish vositasi bo'lib, u har bir marketing boshqaruviga doir operatsiyalarni optimal bajarish orqali ta'minlaydi va shuning uchun operatsion boshqaruv doirasida nafaqat operatsion yoki ijrochi direktorni tayinlash, balki ish jarayoni ishtirokchilarini uzluksiz faoliyatni takomillashtirish tizimiga birlashtirish zarur bo'ladi.

Foydalanilgan manbalar:

- 1.<https://motherhouse.ru/uz/mortgage/chto-takoe-operacionnyi-marketing-strategicheskii-i-operacionnyi/>
2. <https://newmagazineroom.ru/uz/usn/marketingovaya-deyatelnost-stroitelnogo-predpriyatiya-upravlenie/>
3. <https://serviceproekt.ru/uz/biznes/vozmozhnosti-strategicheskogo-planirovaniya-sushchnost-i-funkciya/>

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(9-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000